**1 -sonli Abonent shartnomasi**

**yuridik shaxslarga telekommunikatsiya xizmatlari taqdim etish bo'yicha**
**(yuridik shaxs bo'lmagan yakka tartibdagi tadbirkorlarga)**

**2022 yil «21» yanvar**

1. «O'zbektelekom» AK nomidan 2022 yil **«08»** yanvar kungi № 59-01-22/27-sonli ishonchnoma asosida ish yurituvchi direktor A.Temirov, keyinchalik **«Operator»** deb nomlanadigan bir tomondan va Qo'shtepa tuman xalq ta'limi bo'limi , amaldagi Ustav (Qoida, ro'yxatga olinganlik to'g'risida Guvohnoma, ishonchnoma) asosida ish ko'radigan Z.Tojiboev. boshqa tomondan, keyinchalik alohida **«Abonent»** deb nomlanadigan, **«Tomonlar»** hamkorligida telekommunikatsiya xizmatlarini taqdim etish bo'yicha quyidagilar to'g'risida mazkur Abonent shartnomasi tuzildi (matn davomida - Shartnoma).

1.1. Telekommunikatsiya xizmatlari taqdim etish bo'yicha mazkur shartnoma imzolangan vaqtdan boshlab abonent (jumladan, mintaqaviy vakillik va filiallar) bilan ilgari tuzilgan shartnoma o'z kuchini yo'qotgan hisoblanadi.

2. Abonent, telekommunikatsiya xizmatlari taqdim etish bo'yicha mazkur shartnomani imzolashi bilan rasmiy saytda e'lon qilingan «O'zbektelekom» AK ommaviy oferta shartlarini qabul qiladi. Abonent ommaviy oferta matni (Ommaviy ofertaning to'liq matni operator sotuvlar ofislarida, operator agentlari sotuvlar ofislarida va operatorning rasmiy WEB-saytida joylashtirilgan) bilan tanishtirilgan. Abonent operator taqdim etadigan xizmatlarga tegishli to'lovlarni amalga oshirilganligini tasdiqlovchi moliyaviy hujjatni olish uchun oldindan avans to'lovni amalga oshirishi operatorning ommaviy oferta shartlari(akseptlari)ni so'zsiz qabul qilganligi bo'lib hisoblanadi.

3. Abonent mazkur shartnomani imzolaganidan so'ng, operator unda texnik imkoniyatlari mavjudligini tekshiradi. Texnik imkoniyatlar mavjud bo'lganida, operator shartnomani o'z tomonidan imzolaydi va abonentga identifikatsiya raqamini taqdim etadi. Abonentga identifikatsiya raqami taqdim etilganidan keyin oldindan avans to'lovni amalga oshirishi mumkin. Texnik imkoniyatlar mavjud bo'lmaganida, operator tomonidan shartnomani imzolanguniga qadar, mazkur hujjat unga telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatilishi uchun abonentning arizasi bo'lib hisoblanadi.

3.1. Abonentni telekommunikatsiya xizmatlariga ulash shartlari va tariflar (narxi) mazkur shartnomaning ajralmas qismi bo'lgan ilovalarda belgilangan va mazkur shartnoma kuchga kirgan vaqtdan boshlab kuchga kiradi:

1-ilova. Ko'rsatilayotgan xizmatlar:

- «Mobil aloqa (telefoniya, ma'lumotlar uzatish, VAS) xizmatlari tarif rejasi»;
- «Internet (KPU, IP telefoniya, VPN) tarmog'iga doimiy korporativ ulanish xizmatlari tarif rejasi»;
- «IPTV xizmatlari tarif rejasi»;
- «Virtual xosting» xizmatlari tarif rejasi»;
- «Bulutli video kuzatish» xizmatlari tarif rejasi»;
- «Umumiy foydalanish telefoniya (TfOP, PSTN) xizmatlari tarif rejasi».

2-ilova. Ishlarni qabul qilish va alohida ulanishni sinov(test)dan o'tkazish dalolatnomasi(AKTi).

3.2. Abonent tomonidan operator taklif etgan xizmatlar ro'yxatidan tanlovga muvofiq tomonlar bir ilovani rasmiylashtirishlari mumkin.

3.3. Tomonlar amal qilib turgan ilovalardan birining o'rniga yangi ilova imzolagan taqdirlarida, tomonlar mazkur shartnomaga qo'shimcha kelishuv imzolash vaqtidan boshlab oxirgisi o'z kuchini yo'qotadi.

4. Mazkur shartnoma bo'yicha xizmatlar narxi ilovaga muvofiq belgilanadi.

4.1. Tariflar abonent bilan shartnoma tuzishda va operator xizmatlaridan foydalanish jarayonida hisob-kitob uchun majburiy bo'lib hisoblanadi. Xizmatlarga barcha tariflar milliy valyutada hisoblanadi va mazkur shartnoma tuzilishi vaqtida o'rnatilgan barcha soliq va yig'imlarni o'z ichiga oladi.

4.2. Shartnoma narxi taqdim etiladigan xizmatlar hajmi bilan mazkur shartnoma 3.1 punktida ko'rsatilgan ilovaga muvofiq belgilanadi va quyidagilardan iborat bo'ladi:

Jami 4 320 000 (To'rt million uch yuz yigirma ming) so'm QQS bilan/ QQSsiz, bundan ____ (______________________________) so'm miqdordagi abonent to'lovini o'z ichiga oladi QQS bilan/ QQSsiz va ____ (______________________________) so'm miqdorida bir martalik to'lov QQS bilan/ QQS siz.

Shartnoma imzolangandan so'ng 2 ish kuni ichida aloqa xizmati ko'rsatish boshlanib 2022 yil 31 dekabrgacha amalga oishiriladi.

4.3. Mazkur shartnoma narxi/ abonent to'lovi oshirilgan taqdirda, pul miqdori tomonlar imzolagan mazkur shartnomaga qo'shimcha kelishuv/ schet-faktura asosida to'lov amalga oshiriladi.

4.4. Abonent 100 (yuz) foiz xizmat to'lovini to'lov sharti bilan har oy kelasi oy hisob davri (hisobot davri)ga qadar oldindan to'lovni, ko'rsatilgan xizmatlar uchun tanlab olingan tariflar hajmi/tarif rejasiga muvofiq, pul mablag'larini mazkur shartnomaning 7-punktida belgilangan operator shaxsiy hisobiga pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiradi.

4.5. Birinchi oy xizmatlardan foydalanganlik uchun abonent to'lovini amalga oshirish mazkur shartnoma imzolanganidan keyin 7 (etti) kalendar kuni mobaynida amalga oshiriladi. Birinchi abonent to'lovining kiritilishi bilan mablag'dan oyning qolgan kunlariga qadar hisob yechib olinadi. Oldindan avans to'lov shartnoma asosida tegishli ilovaga muvofiq, tanlab olingan xizmat turi uchun har bir oyga oldindan to'lov hisobi asosida amalga oshirilishi mumkin.

4.6. Agar abonent hisob raqamida xizmat ko'rsatilishi uchun mablag' yetarli bo'lmasa, operator mazkur shartnomaga muvofiq Xizmat ko'rsatadi. Operator tomonidan ulangan xizmatdan foydalanilmaganlik va xizmat to'xtatilganligi abonentning ular uchun to'lovdan ozod etilishiga asos bo'lmaydi.

4.7. Abonentga operatordan reklama aksiyalari davrida taqdim etiladigan bonus ko'rinishida qo'shiladigan barcha mablag' faqat operator xizmatlariga to'lovlar sifatida sarflanishi mumkin va shartnoma bekor qilinganida abonentga pul shaklida taqdim etilmaydi.

4.8. Taqdim etilgan xizmatlar mazkur shartnomaga havola bilan har bir taqdim etilgan xizmat turi uchun alohida rasmiylashtirilgan schyot-fakturalar bilan yopiladi. Mazkur shartnomada ko'rsatilgan ilova 3.1.-punktiga muvofiq, har bir kalendar oyi uchun alohida schyot-fakturada taqdim etilgan xizmatning muayyan turi mablag' hajmi miqdori ko'rsatiladi. Agar 5 (besh) ish kuni mobaynida abonent o'z e'tirozlarini yozma shaklda yoki faks bo'yicha taqdim etmasa, mazkur xizmat turi bo'yicha schet-faktura u tomonidan qabul qilingan va xizmatlar to'g'ri ko'rsatilgan bo'lib hisoblanadi. Abonentning e'tirozlari asoslangan taqdirda, operator kelgusi oyda xizmat ko'rsatilishida hisoblarga tegishli tuzatishlar kiritadi.

5. Abonent ommaviy oferta qoidalari to'liq tasdiqlashi va so'zsiz qabul qilishini bildirdi. Ommaviy ofertada bayon etilgan shartnomaning barcha mavjud shartlari (predmeti,

...тасдиқланган, ҳужжат коди: QP74125063

tariflar va xizmatlar turi, tomonlarning huquq va majburiyatlari, hisoblar shakl va tartibi, mas'uliyat va boshqalar) ommaviy ofertaga muvofiq belgilanadi. Mazkur shartnomada ko'zda tutilmagan holatlarda tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asoslanadilar.

6. Mazkur shartnoma abonent tomonidan ommaviy oferta akseptini (imzolagan) amalga oshirgan vaqtdan boshlab, g'aznachilik bo'limi ro'yxatidan o'tgan kundan kuchga kiradi va **2022 yil 31 dekabrga qadar amal qiladi**. (Mazkur shartnoma abonent tomonidan tegishli byudjetdan tashqari davlat organlariga muvofiq ro'yxatdan o'tkaziladi). Bunda agar shartnomada ko'rsatilgan amal qilish muddati yakunlansa, shu muddat yakunlangunga qadar tomonlar uning shartlarini bajarishda davom etadilar va uning bekor qilinishini birorta ham tomon talab qilmasa shartnoma har yil uzaytiriladi.

6.1. Mazkur shartnoma operator rasmiy saytida e'lon qilingan ommaviy oferta shartlari qoidalari va qo'shimchalari agar shundaylar mavjud bo'lsa, shartnoma mavzusiga nisbatan operator va abonent o'rtasida to'liq shartnoma tuziladi.

6.2. Mazkur shartnoma shartlarida ommaviy oferta shartlariga qarama-qarshi shartlar yuzaga kelsa, ommaviy oferta shartlari va qoidalari ustun kuchga ega deb hisoblanadi.

6.3. Tomonlarning manzili va bank ma'lumotlari(rekvizitlari), ularning muassislari hujjatlari, jumladan, mulk egasi, uning tashkiliy-huquqiy shakllari va boshqalar o'zgargan taqdirda ham, shartnoma o'z kuchida qoladi. Bunda tomonlar 10 (o'n) kun muddat mobaynida bir-birlarini xabardor qilishlari shart.

6.4. Shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar agar ular yozma shaklda bajarilgan va vakolatli shaxslar tomonidan imzolangan, tomonlar muhri bilan tasdiqlangan bo'lsa, haqiqiy deb hisoblanadi.

6.5. Mazkur 2 (ikki) nusxada tuzildi, har bir tomon uchun bittadan.

7. Tomonlarning manzili va bank ma'lumotlari(rekvizitlari):

**Operator**
**«O'zbektelekom» AK**
**Toshkent sh. AT "Alokabank"**
**H/r: 20210000704074838356**
**MFO: 00401 OKED: 61100**
**INN: 203366731**
**QQS to'lovchi ro'yxat kodi: 326030001381 7**
**Manzil Farg'ona shaxar Al-Farg'oniy ko'chasi 5 uy**

**A.Temirov**

**Abonent**
**Qo'shtepa tuman Xalq ta'limi bo'limi**
**Manzil: Qo'shtepa tuman Qiyqi MFY**
**Soxibkor ko'chasi 34 uy**
**X/r: 100022860302067092100075050**
**INN 200178073 OKONX:92310**
**Qo'shtepa tuman G'aznachilik bo'linmasi**
**Gaz. X/r23402000300100001010**
**Bank nomi: Markaziy bank Toshkent**
**MFO:00014, INN: 201122919**

**Raxbar: Z.Tojiboev**

2022 y 22 / 01 /
**№ 1 shartnomaga**
**1-sonli ilova**

**Ko'rsatilayotgan xizmatlar nomi va ularning tariflari**

*O'lchov birligi Milliy valyuta- -Sum*

| № | Xizmatlar nomi | Narxi (NDS bilan) | Asos | Mikdori | Summa (NDS bilan) |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | | 3 | 4 | 5 | 6 |
| 1. | ***Bir martali tulovlar*** | 0 | 0 | 0 | 0 |
| 1.1. | Bir dona rakamni ruyxatga olish uchun | 0 | 0 | 0 | 0 |
| 1.2 | | 0 | 0 | 0 | 0 |
| 2 | ***Xar oylik tulovlar*** | *1440000* | *Oy* | 3 | **4320000** |
| | Abonent tulov | 0 | 0 | 0 | 0 |

Ko'rsatilgan Ilovaga muvofiq shartnomaning mikdori quyidagicha bo'ladi
4 320 000 (To'rt million uch yuz yigirma ming ) so'm,
Bundan 1 440 000 (Bir million to'rt yuz qirq ming) so'm miqdordagi oylik abonen to'lovini o'z ichiga oladi.
Shartnomaning miqdori oshgan taqdirda xar oyda oshgan qismi tulab beriladi

**Operator**
**«O'zbektelekom» AK**
**Raxbari A.Temirov**
**Imzo:**
**MO'**

**Abonent**
**Qo'shtepa tuman Xalq ta'limi bo'limi mudiri**
**Z.Tojiboev**
**Imzo:**
**MO'**

ктрон рақамли имзо орқали тасдиқланган, Ҳужжат коди: VF7388565314

# YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA

## HUQUQIY XULOSA №

1. **Loyihaning turi:** Shartnoma
2. **Loyihaning nomi:** “O‘zbektelekom” AK bilan 4 320 000 so‘mlik abonent shartnomasi
3. **Loyihani ishlab chiquvchi:** Qo‘shtepa tuman xalq ta’limi bo‘limi
4. **Loyiha kiritilgan sana:** 20.01.2022

## HUQUQIY EKSPERTIZA XULOSASI:

loyiha qonunchilikka muvofiq, undan foydalanish mumkin.

**Loyihani huquqiy ekspertizadan o‘tkazuvchi:**

Qo‘shtepa yuridik xizmat ko‘rsatish

markazi boshlig‘i **I. K. Zokirov**

K